

Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Talabalar teatr studiyalari" tanlovini tashkil etish va o'kazish tartibi to'g'risidagi NIZOM

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi (ta 'lim yo 'nalishi musiqa ta 'limi va aktyorlik san 'ati bo 'Imagan) barcha talaba-yoshlar o'rtasida "Talabalar teatr studiyalari" tanlovi (bundan keyingi o'rnlarda Tanlov deb yuritiladi)ni o'tkazish tartibini belgilaydi.

II. Tanlovnning maqsad va vazifalari

2. Tanlov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomondan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda talaba-yoshlarni teatr san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirishdan iborat.

III. Tanlovnvi tashkil etish va o'tkazish

3. Tanlov (tashkilotchi) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta' lim muassasalarining 20 nafargacha talaba-yoshlardan tashkil topgan teatr studiyalari jamoalari ishtirok etadi.

4. Tanlovnvi tashkil etish va uni o'tkazish, Respublika tashkiliy ishchi guruhi hamda oliy ta' lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

5. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoalar oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-yoshlardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

6. Tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi.

7. Tanlovnning 1-bosqichi dekabr, 2-bosqichi yanvar-fevral, 3-bosqichi mart-aprel, 4-yakuniy (respublika) bosqichi may-iyun oylarida o'tkaziladi.

8. Tanlovnning 1-bosqichi oliy ta' lim muassasasidagi fakultetlar jamoalari o'rtasida Nizomning I-ilovasiga muvofiq tashkil etiladi va o'tkaziladi. Mazkur bosqich yakunlari bo'yichz oliy ta'lim muassasasining teatr jamoasi tanlab olinadi, I -o'rinn g'olib jamoa keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

9. Tanlovnning 2-bosqichi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalari talabalar teatr studiyalari jamoalari o'rtasida Nizomning 2-ilovasiga muvofiq o'tkaziladi.

10. Tanlovning 3-mintaqaviy va 4-respublika bosqichlari bo'lib o'tadigan joyi va muddati, Respublika Tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadi va 5 kun oldin g'olib bo'lgan oliy ta'lif muassasalariga ma'lum qilinadi.

11. Hududiy, mintaqaviy va respublika bosqichi Hakamlar hay'ati tarkibi Respublika tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilangan mas'ullardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

12. Har bir bosqichda Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra jamoalar keyingi bosqich uchun yo'llanmani qo'lga kiritadilar.

IV. Oliy ta'lif muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan "Talabalar teatr studiyalari" tanlovi nominatsiyalari va baholash mezonlari

"Talabalar teatr studiyalari" tanloving nominatsiyalari:

"Eng yaxshi spektakl"

Tanlangan asarning badiiy-g'oyaviy talqini va yechimi, sahna bezagi, musiqiy ifodasi, kiyim, rekvizit, dekoratsiya va boshqa vositalardan foydalanish imkoniyati hamda havaskor ijrochi aktyorlarning mahorat darajasi umumiy birlikda ko'rib chiqiladi.

"Dolzarb mavzuning sahnnaviy talqini uchun"

Sahna asari ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar, dolzarb muammo va masalalar, ayniqsa yoshlar hayotini aks ettiruvchi mavzuga boy, badiiy jihatdan yaxlit sahnnaviy talqinga ega bo'lishi kerak. Spektaklda ko'tarilgan dolzarb muammoning ijobiy yechimiga jamoaning takliflari e'tiborga olinadi.

"Milliy an'ana va qadriyatlarni tarannum etgani uchun"

Tanlangan asarda xalqimizni boy madaniy merosi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatları, xalq og'zaki ijodiyotining turli namunalaridan foydalanganligi, musiqiy va plastik raqs harakatlarini ijrochilik mahorati inobatga olinadi. Sahna asari, doston, afsona va boshqa janrlari asosida tayyorlangan, sahna qoidalariiga moslangan, kompozitsion to'laqonli folklor tomoshasi bo'lishi ham mumkin.

"Eng yaxshi erkak roli uchun"

Havaskor erkak aktyorning ijrochilik darajasi, dramatik qobiliyati, xarakterni aks ettiruvchi plastik imkoniyati, nutq madaniyati, ovoz imkoniyatlari, partniyorlarini his qilishi, jamoani spektaklga tortishi umumiy birlikda namoyon bo'lishi kerak.

"Eng yaxshi ayol roli uchun"

Havaskor ayol aktyorning ijro mahorati, dramatik qobiliyati, xarakterni aks ettiruvchi plastik imkoniyati, nutq madaniyati, ovoz imkoniyatlari, partniyorlarini his qilishi, jamoani spektaklga tortishi umumiy birlikda namoyon bo'lishi kerak.

"Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari"

Bunda rahbarning talabalar teatr studiyasi faoliyatini yo'lga qo'yishdagi tashkilotchilik ishlari, oliy ta'lim muassasasidagi iqtidorli yoshlarni izlab topish, sahna asarlarini badiiy va g'oyaviy jihatdan to'g'ri tanlash, sahnalashtirish jarayonida kerakli rekvizitlarni topishda amaliy yordam berish, sahna mutaxassislarini ijodiy jarayonga jalb etish, jamoada etika, o'zaro hurmat va madaniy tartib o'rnatish, shuningdek, talabalar teatr studiyasida ijodiy muhitni yaratish iqtidori e'tiborga olinadi.

13. Hakanilar hay 'ati tomonidan teatr studiyalari chiqishlarini baholashda quyidagi mezonlarga: jamoalarning badiiy chiqishlari va sahnaviy ko'rinishlarini tayyorlashda o'ziga xosligi, milliyligi, mazmundorliligi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga, ular mohiyatini oddiy va xalqchil tarzda ochib berishiga, kiyinish va nutq madaniyati, ijodiy, badiiy hamda voqeа-hodisalarini mahorat bilan ijro etishiga e'tibor qaratiladi. Teatr studiyalari jamoalari tayyorlagan sahna asarlariga 10 daqiqadan 60 daqiqagacha vaqt beriladi.

14. Faol ishtirok etib, ammo jamoa tomonidan ijro etilgan spektakllari tanlagan asari nominatsiyalarga to'g'ri kelmagan taqdirda, Hakanilar hay'ati tomonidan o'rganiladi va ijobjiy hal etilib 1, 2, 3-o'rin berilishi mumkin.

15. Barcha nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni aniqlash Hakanilar hay 'ati a'zolari tomonidan hal etiladi. "Eng yaxshi spektakl" nominatsiyasini qo'lga kiritgan jamoa (yoki 1-0 'rin g'dibi) "Talabalar teatr studiyalari" tanlovi mutlaq g'olib deb topiladi. Kevingi yilgi "Talabalar teatr studiyalari" tanlovingning final 12.Q- gjchLg'01ib bo'lgan janloa hududida tashkil etiladi.

16. Hakanilar hay 'ati tomonidan belgilangan nominatsiyalar (yoki o 'Fin) yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

V. G'oliblarni taqdirlash

17. Tanloving 3-mintaqaviy bosqichida ishtirok etgan jamoalarning har bir ishtirokchi talabalari bir oylik bazaviy stipendiya miqdorida va mas'ul rahbarlari bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bir martalik moddiy rag'batlantiriladi.

18. Final bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar Hakanilar hay' ati xulosasi hamda Respublika tashkiliy ishchi guruh raisi bayonnomasiga asosan rag'batlantiriladi.

19. Oliy ta' lim muassasalarida o'tkaziladigan "Talabalar teatr studiyalari" tanloving yakuniy final bosqichida faol ishtirok etgan va g'olib bo'lgan jamoalari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda nominatsiyalar bo'yicha:

"Eng yaxshi spektakl" — 60 million so'm;

"Dolzarb mavzuning sahnaviy talqini uchun" — 40 million so'm;

"Milliy an 'ana va qadriyatlarni tarannum etgani uchun" — 30 million so'm;

"Eng yaxshi erkak roli uchun" — 8 million so'm;

"Eng yaxshi ayol roli uchun" — 8 million so'm;

"Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari" — 4 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Shuningdek, hamkor tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishi mumkin.

20. Tanlovning hududiy, mintaqaviy va respublika bosqichlarida Hakamlar hay'ati tarkibida ishtirok etgan oliy ta'lim muassasalarining mas'ul xodimlari bir oylik miqdorda bir martalik oliy ta'lim muassasasining budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantiriladi.

21. Tanlovning final bosqichini yuqori saviyada tashkil etgan tashkilotchi mas'ul xodimlari asosiy ish joyidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari hisobida bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

22. Tanlov davomida Hakamlar hay'ati tomonidan Nizomda ko'zda tutilganidan boshqa nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni tanlab olinishi va esdalik sovg'a bilan taqdirlanishi mumkin.

VI. Yakuniy qoidalar

23. Jamoalar tomonidan sahnalashtirilgan sahna asarlari Nizom talablariga mos kelmagan hayosizlikni targ' ib qiluvchi sahna asarlari ijro etilgan taqdirda Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan spektakl jarayonida to'xtatiladi va natijalari bekor qilinib tanlovdan chetlashtiriladi.

24. Sahnada, sahna madaniyatiga amal qilmagan jamoa a'zolariga Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan dalolatnoma tuziladi hamda ushbu jamoa a'zosi bo'lgan oliy ta'lim muassasasi keyingi yilgi "Talabalar teatr studiyalari" tanlovida ishtirok etmaydi va mas 'ul rahbarlariga chora ko'rildi.

25. Davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari tanlovdan homiylik qilishlari mumkin.

26. Tanlovning hududiy, mintaqaviy va yakuniy bosqichida Hakamlar hay'ati a'zolarining xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.